

## **PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI**

***Beknazarova Hilola Shuxratovna***

*Jizzax viloyati Zomin tumani MMTB qarashli 73- maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya :** O`quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlik, o`qishga ijobiy munosabat, o`z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o`zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashi kerak.

**Kalit so`zlar:** Boshlang'ich sinf, pedagog, o`quvchi dunyo qarashi, ta'limtarbiya, ta'lim sifati, korreksiya, agressiya

### **KIRISH**

O`qituvchining o`rni va uning vazifalari o`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish jarayonida o`qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o`qituvchiga bog'liqdir. Zamonaviy maktab o`qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O`qituvchi – sinfdagi o`quv jarayoni tashkilotchisidir. O`qituvchi o`quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o`qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o`qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o`quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O`qituvchi maktabning pedagog jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o`qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik

birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning otalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar tag'ribotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga quyadigan talablari tushunarlidir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim hislatlari quyidagilardan iborat:

-O'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

-ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

-o'z ishiga ijodiy yondashishi;

-bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

-pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

-o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan quyilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning otalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchan jamiyat tomonidan o'qituvchiga quyiladigan talablarga kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari O'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishni talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan

bunday talabalarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar, maktab direktori esa bunday xislatlarni O'qituvchi shaxsiga quyiladigan talablar ichida birinchi o'ringa quyadilar.

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar.

Bola maktabga qadam qo'yar ekan, o'zi tasavvurida mutlaqo yangi muhitga tushib qoladi. Garchi bola o'yin faoliyatini tark etmasada, o'qishga bo'lgan mas'uliyati yetakchi faoliyat turiga aylanadi. Ana shu vaqtda bolaning maktabga moslashuv masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda birinchi navbatda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'siri kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi kuchli psixolog bo'lmog'i kerak. Har bir bolani xarakterini bilishi, shunga munosib ularga muomala qilishi, ularning ichki kechinmalarini tushungan holda vaziyatni to'g'ri baholay olmog'i kerak.

O'qishning dastlabki kunidanoq bolaning o'sishini harakatga keltiradigan turli ziddiyat, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Bular zahirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va shu berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi. Demak har bir o'qituvchi kuchli psixolog bo'libgina qolmasdan kasbiy kompetentlikka ham ega bo'lmog'i kerak. Kompetentlik tushunchasi-mutaxassisligini chuqur egallagan, fanini yaxshi biladigan va uni o'quvchilarga yetkazib bera oladigan, degan ma'noni bildiradi.

O'qituvchi qachonki o'zining ma'naviy, kasbiy qiyofasini belgilovchi asosiy sifatlarni egallasagina kompetentlikka erishadi. Pedagogika fanida o'qituvchining ma'naviy qiyofasini quyidagi fazilatlar belgilaydi:

- vatanparvarlik;
- insonparvarlik;
- mehnatsevarlik;

-axloqlilik.

O'z navbatida bu fazilatlar ham bir necha qismdan tashkil topadi. Misol uchun, vatanparvarlik fazilatiga ega bo'lish uchun o'qituvchi fidoyi, xalqparvar, hamjihat, tinchliksevar va mard bo'lishi lozim. Insonparvarlikni esa adolatlilik, andishalilik, mehribonlik, saxovatlilik, kamtarlik kabi xislatlar shakllantiradi. Ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, intizomlilik, tashabbuskorlik esa o'qituvchidagi mehnatsevarlik fazilatiga asos hisoblanadi. Odoblilik, halollik, bag'rikenglik, vijdonlilik, qalb uyg'oqligi, o'z-o'zini anglash singari xislatlar uning axloqiy fazilatini vujudga keltiradi.

Shuningdek, o'qituvchi kompetentlikka erishish uchun quyidagi kasbiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi anglovchi;
- diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallagan;
- pedagogik-psixologik malaka va mahoratga ega;
- global ilmiy-nazariy, amaliy bilimlarni chuqur egallagan;
- bolalarni sevuvchi;
- kuchli notiq, mantiqiy fikrlovchi;
- madaniyatli, estetik didli, o'quvchilarga har tomonlama ibrat bo'la oladigan;
- imon-e'tiqodi butun;
- vatanparvar;
- jamiyatda obro'-e'tiborli bo'lishi kerak.

O'qituvchidan mafkuraviy sohada ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj, fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik talab etiladi. Kasbiy-pedagogik sohada esa muallim bolalarni, kasbini sevishi, ular bilan ishlashga qiziqishi lozim. Shuningdek, u zerak va kuzatuvchan bo'lishi hamda pedagogik takt, pedagogik tasavvur, bunyodkorlik, tashkilotchilik, haqqoniylik, talabchanlik, qat'iylik, maqsadga intilish kabi xislatlarga ega bo'lishi kerak. Bilish sohasida keng ilmiy salohiyat, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish talab etiladi. O'quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini

idora etish,o`zini tuta bilish,qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashi kerak.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda,yosh davrlari psixologiyasini yaxshi bilish,o`qituvchio`quvchi orasidagi munosabatlarning muvaffaqiyatini belgilaydi,ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

- 1.G `oziyev E.Psixologiya.-T., 1999.
- 2.“Xalq ta'limi”jurnali, 2014-yil, 6-son.
- 3.“Umumta'lim fanlari metodikasi”jurnali, 2014-yil, 3-son.
- 4.Internet materiallari